



## O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORAS" ROMANIDA KO'MAKCHILARNING QO'LLANISH MA'NOLARI

R.L. Xayrullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Anotatsiya:** Ushbu tezizda O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida qo'llangan ko'makchilarning ma'nolari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** O'tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi, ko'makchilar,yarim ko'makchilar, yordamchi so'zlar, bog'lovchilar, yuklamalar, uchun, bilan, sabab ma'nosi, atalgaanlik ma'nosi, evaz ma'nosi...

**Аннотация:** В данной статье дан анализ романа Откира Гашимова «Междудвумя дверя» и примеры использования в нем вспомогательных слов.

**Ключевые слова:** Откир Гашимов, Междудвумя дверями, вспомогательные устройства, полуспомогательные устройства, вспомогательные слова, соединители.

**Abstract:** This article provides an analysis of Otkir Gashimov's novel "Between Two Doors" and examples of the use of auxiliary words in it.

**Key words:** Otkir Gashimov, Between two doors, auxiliary devices, semi-auxiliary devices, auxiliary words, connectors.

Turkiy tillarda (jumladan o'zbek tilida ham) ko'makchi ko'pdan buyon tilshunoslarning tekshirish manbai bo'lib kelmoqda.O'zbek tilidagi ko'makchiga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A.N.Kanonov bergan "ko'makchilar shunday bir grupa so'zlarki ular ot blan yoki obeykt blan predikat orasidagi qurovlosita,maqsad,sabab,payt,masofa,yo'nalish, o'xshatish kabi munosavatning yaratilishida xizmat qiladi" dep ta'rif bergan."ko'makchi obeyktning obeyktga yoki obeyktning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir.Darxaqiqat,ko'makchi mustaqil so'z orasidagi tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma'nosini aniqlashtirish,to'ldirish uchun xizmat qiladi.Ko'machi ma'no va vazifa jihatidan kelishik qo'shimchasiga yaqin turadi.Shuning uchun ba'zan kelishik shaklidan anglashilgan ma'no ko'makchi bilan ham ifodalilanadi.(Kechasi bezovta bo'lib chiqqaniga vaqtlikkina yotib qoldi- kechasi bezovta bo'lib chiqani uchun vaqtlikkina yotib qoldi,O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi", qora amma obrazi) .Lekin ular kelishik affiksiga qaraganda ma'noni aniq,konkret ifodalaydi.

Ko'makchining shakliy xususiyatiga ko'ra turlari.ko'makchi shakliy va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

- a)sof ko'makchi;
- b)yarim ko'makchi;



d) qo'shimchasimon ko'makchi.

Nutqimizda tez tez ishlatiladigan [UCHUN] , [BLAN], [SARI], [QADAR], [KABI], [SINGARI], [SAYIN], [ORQALI], so'zi sof ko'makchi, ular tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Ushbu tezizda aynan ushbu ko'makchilarning O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida foydalanilgan, shaklarini ko'rib chiqamiz. Sof ko'makchi boshqa so'zga birikkan holda turli munosabatni anglatadi. Jumladan [bilan] ko'makchisi o'zbek tilida asosan ko'makchi, ba'zan bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko'makchi turi yordamchi so'zdan birining o'rnida ikkinchisi qo'laniishi nuqtai nazaridan ko'makchi- bog'lovchi atamasi ostida ham o'rganilmoqda. (bilan) yordamchisining etimologiyasi xaqida professor A.N.Kanonov, V.V.RADLOV, J Denni kabi qator tilshunoslarning fikrini etiborga olib, (birlan) so'zidan kelib chiqqanini aytgan. Bilan yordamchisining (birla, birlan, bila ila, la) shakllari vazn, qofiya va uslub talabiga ko'ra ko'proq poeziyada uchraydi.

Chunonchi, Hovliga kirishim bilan bo'yи mendan tikroq, kir ko'ylak kiygan, qop qora kallaxum bola chopib kelib, boshimdag'i do'pimni olib qochdi.

1. Biror harakatning shaxs yoki predmetlarning birgaligini:

Zakunchi cho'ntagini uzoq titkiladi. Oxiri papiros olib, tutatdi.

-Gapiring!- dedi boshini malomat bilan chayqab.- Gapga ustasiz-ku avlod-ajdodingiz bilan! ("Ikki eshik orasi" yigirmanchi bob "Qora amma" hikoyasi 1 Duma chol, Duma chol... Umar zakunchi obrazi)

2) harakatni bajarishdagi vosita ma'nosini: Umar zakunchi qo'li bilan sochini tuzatdi.

3) payt ma'nosini: Ra'no kelishi bilan uning holati o'zgardi

4) sabab ma'nosini: O'sha kuni Umar akaning maslahati bilan shu ro'molni kooperativ do'konidan men olib kelgandim. (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" o'n beshinchi bob Ra'no hikoyasi Lazakat xola obrazi.)

-kimsiz?- dedim titrab.

Nega qo'rjasiz Ra'noxon, bayram bilan tabriklagani keldim. Bir minutga mumkinmi. (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" O'n beshinchi bob Ra'no hikoyasi, og'ish burchagi, Umar zakunchi obrazi)

5) harakatning bajarilishdagi holatini:- Bunaqa sharmandandalikka siz chidasangiz, biz chidolmaymiz!- Umar zakunchi istexzo bilan hovli to'la olomonga o'girildi. ("Ikki eshik orasi" yigirma ikkinchi bob, Robiya hikoyasi, Orif oqsoqolning qarori, Umar zakunchi obrazi.)

(Oyim hamon g'ayrat bilan yelin cho'zar, galanska sigir uzun, oqish kipriklarini muloyim yumib turardi. (O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" romani ikkinchi qism uchinchi bob, Robiya hikoyasi "qora amma" obrazi)

Uchun ko'makchisi "atalganlik" ma'nosini ifodalab keladi:

Kecha Olimjon traktor uchun olib kelgan suv esimga tushdi. Xayriyat, bir chelak suv haliyam soyada turgan ekan. ("Ikki eshik orasi" romani, yigirma uchinchi bob



,Robiya hikoyasi, "yaxshilik ham yomonlik ham javobsiz qolmaydi" Abduraxmonov obrazi.)

Uchun ko'makchisi "Sabab" ma'nosini ifodalab keladi: Eng avval oqsoqolga ko'zim tushdi.Ehtimol,gavdasi hammanikidan katta bo'lganligi uchun birinchi bo'lib uni ko'rgandirman.(“Ikki eshik orasi” Robiya hikoyasi.2.yangi rais Orif oqsaqol obrazi.)

Yo'lida yarimta boshoq ko'rinsa,erinmay to'xtaydi.Qopi xalaqit betayotgani uchun yerga qo'yadi-da,boshoq uvog'ini ildam yulqib oladi,qopiga tashlaydi.(“Ikki eshik orasi” yigirma uchinchi bob Robiya hikoyasi Olimjoning “gunohi” Olimjon obrazi)

Uchun ko'makchisi “evaz” ma'nosini ifodalab keladi :

“-O'rtoq kolxozchilar- dedi baland,jarangdor ovozda-

hurmatingiz uchun raxmat, o'rtoqlar!” (“Ikki eshik orasi” Ikkinci qism,uchinchi bob,Robiya hikoyasi,yangi rais Umar zakunchi obrazi).

Singari ko'makchisi bir narsani boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosini anglatadi. Masalan: U hamisha haqli bo'lgani singari hozir ham to'g'ri gapirardi.(“Ikki eshik orasi” Ra'no hikoyasi,al qasosu min alxaq.Umar zakunchi obrazi.)

Singari ko'makchisi bilan [-dek],[-day] ma'nodoshlik xususiyati tilshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan.

“Qaynog'am” aytganidek, hammasi taomildagidek bo'ldi.(“Ikki eshik orasi” Yigirma yettinchi bob,Ra'no hikoyasi,al qasosu minal haq,Umar zakunchining akasi obrazi.)

Olomon orasidan alaqanday ayol qulogni teshib yuborgudek chinqirdi

-Ur,olomon!O'zbekchilikka dog' tushirgan cho'chqani o'ldir.(“Ikki eshik orasi” yigirma ikkinchi bob ,Robiya hikoyasi,Orif oqsaqolning qarori, askar yigit obrazi.)

Baqqa o'tir!-dedi u vujudi titrab-Senam baqqa ke!

Askar yigit rangi bo'zday oqargancha odamlar orasidan o'ta boshladi.(“Ikki eshik orasi,”Yigirma ikkinchi bob, Robiya hikoyasi,Orif oqsaqolning qarori,Zuhra kelin obrazi.)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. -T.: O'qituvchi, 1994. – 56 6.
2. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi,1996. – 125 b.
3. O'tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” romani.
4. Holiqova, D. S. (2023). Methodology of developing students' reading and writing skills based on distance education technologies (in the example of English language materials). Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 7(2), 75-80.
5. Holiqova, D. S. (2023). Тенденции развития образования и педагогики. Conference, 1(5), 147-150.



6. Golovko, Y. V. (2022). The problem of defining and grouping of precedent related nominals. Konferensiya, 1(1), 265-270.
7. Jalilovna, K. D. (2019). The concept of literary psychologism in the works of F. Dostoyevsky. European journal of literature and linguistics, (2), 39-42.
8. Khalilova, D. J. (2019). Human and society interpretation in literary work. Гуманитарный трактат, (55), 20-23.
9. Rakhimova, U. (2021). Hamid Olimjonning badiiy san'atlardan foydalanishdagi mahorati tahlili. UzA, 332153, 205-210.
10. Rakhimova, U. (2021). Muloqot jarayonida shaxs nutqi tadqiqi. "Obrazovaniye i nauka v XXI veke", 2(13), 764-769.
11. Djumayevna, R. U. (2021). Lisoniy shaxs nutqining pragmatik xossalari. So'z san'ati-Toshkent, 267-271.